

O'RTA ASRLAR BADIY ASARLARIDA NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING QO'LLANILISHI

Ziynatjon Yusupova

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda o'rta asrlarda yaratilgan badiiy asarlarda noverbal kommunikatsiya vositalari qo'llanilishi tahlili qilinib, ularni keltirilgan misollar orqali ilmiy asoslashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy asar, noverbal kommunikatsiya vositalari, personaj, imo-ishoralar, hissiy holat, diniy kontekst.

Абстрактный. В этом тезисе анализируется использование невербальных средств коммуникации в средневековых произведениях искусства и делается попытка научно обосновать их с помощью приведенных примеров.

Ключевые слова: произведение искусства, невербальные средства коммуникации, персонаж, жесты, эмоциональное состояние, религиозный контекст.

Abstract. This thesis analyzes the use of non-verbal means of communication in medieval works of art and attempts to scientifically substantiate them with the help of the given examples.

Key words: work of art, non-verbal means of communication, character, gestures, emotional state, religious context.

Badiiy asarlarda noverbal kommunikatsiya vositalari qo'llanilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rta asr davri madaniyatiga xos badiiy asarlarda personajlarning imo-ishoralari ko'p hollarda an'anaviy va diniy kontekstlarda foydalanilgan. Masalan, rasmiy salomlashish yoki xushmuomalalik shakllari ifodasini ko'rsatgan. Zamonaviy adabiyotlarda esa, bu imo-ishoralar yanada kengroq ma'noga ega. Ular hissiy holatlarni ifodalashda va muloqotni qulaylashtirishda ishlatilgan.

Asliyat: Istabon, ey xasta Navoiy, navo,

Bo'yla safarg'a qilur ersang havo.

Yo'l yamonu yaxshisidin yema g'am,
Bismilloh, degilu qo'ygil qadam...¹.

Tarjima: Longing for melody, oh sick Navoi,
If you travel along the air.
Don't worry if the road is good or bad.
With Bismillah, take a step...

Ushbu asliyat misralarda ollohgga tavakkal qilib, uning nomi bilan navo izlab, falakka safarga chiqmoq iborasi orqali shoir she'riyat bobida umid bilan ijod qilishdan qo'rqmaslik ma'nosini tushunilsa, ikkinchi bir talqinda hayotdan ko'z yumadigan bo'lsang, oxirating yaxshi yoki yomon bo'lishidan qayg'urmaganu mehribon ollohni zikr qilib safarga o'tlan ma'nosini tushunish mumkin. Demak, noverbal kommunikatsiya vositalari badiiy adabiyotning barcha turida birdek qo'llanilib o'rta asr she'riyatida, asosan, ruhiy holatni diniy va adabiy uslubda ifodalashga xizmat qilgan.

O'rta asr badiiy asarlarida personajlarning ko'z qarashi, odatda, ijtimoiy pozitsiyalar va maqomga qarab o'zgaradi. Ba'zi hollarda, to'g'ridan-to'g'ri qarash hurmatsizlik sifatida qabul qilingan. Zamonaviy muloqotda esa bunday tik qarash ko'z bilan aloqaning ahamiyati oshganligini, bu muayyan ma'noda ishonch va ochiqlikni ko'rsatadi.

U vaznda mushtaraklikni saqlab qolishga hamda mazmunan yangi asar yaratishga erishgan. Ko'rinadiki, Miriy ijodida Navoiy an'alarini davom ettirishga intilish kuchli bo'lgan, ayniqsa, muxammaslar tadqiqida bu maqsadi bir qadar hosil bo'lgani ravshanlashadi².

Shuningdek, o'rta asr adabiyotida personajlar tasviridagi jismoniy harakatlar va jestlar, asosan, ritual va diniy kontekstda ko'proq ko'rinadi. Zamonaviy badiiy adabiyotda jestlar global madaniyat ta'sirida unversallashtirildi, ya'ni milliy farqlarning kamaygani, gender xususiyatlarining o'zgarganini ko'rish mumkin:

Asliyat: Nozik ta'b, bir shirin jilvangda dunyo,

¹O'tanova S. Navoiyning nozikta'b izdoshi.– O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi. – O'zbekiston: Toshkent, 2022. B. 78.

²O'tanova S. Navoiyning nozikta'b izdoshi.– O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi. – O'zbekiston: Toshkent, 2022. B. 76.

Sen eksang toshda ham gul bitar, Ayol.

Ba'zan mamlakatni, bir butun xalqni

Zaminda eng buyuk el etar Ayol.

Tilga shu so'z kelsa, aytsa bo'ladi,

Uning jasorati yov yo'liga band.

Vatanga eng sodiq inson bo'ladi

Ona mehri bilan ulg'aygan farzand.

Suyukli yurtdoshim, dildoshim mening,

Kel, ta'zim aylaylik boshimiz egib.

Avval onamizga... Balki ming bora...

Ayvonda o'tirgan yo'lga ko'z tikib³.

Tarjima: Oh woman, Delicate taste of world is in your single sweet gaze,

What you sow, a flower will grow on a stone,

You can make people a whole nation

You are the greatest woman on earth.

If this word comes to the tongue, you can say and say it again,

Mothers' courage able to stop the enemy on the way.

A child raised with mother's love

will be the most loyal person to the country.

My sweet countryman, my hearty fellow,

Come, let's bow our heads.

First go to our mother... Maybe a thousand...

Sitting on the porch, staring at the road

O'rta asr adabiyotida ayolga ta'zim uning poyiga bosh urush kabi harakatlar majoziy va to'g'ri ma'noda zamonaviy adabiyotdagiga nisbatan kam uchraydi.

Noverbal kommunikatsiyaning o'ziga xos unsurlari bo'lgan kiyim va bezaklarda davr ruhiyati yaqqol ko'rinadi. O'rta asr madaniyatiga xos badiiy asarlarda personajlar kiyimlari, ularning shakli, bichimi va ranglari ijtimoiy maqom va holatni ifodalashda

³ Faxriddin Hayit. O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi. Ayol she'ri. – O'zbekiston: Toshkent, 2022. –B.522.

muhim rol o'ynagan. Zamonaviy adabiyotdagi tasviri asosan personajning ijtimoiy dunyoqarashi, kasbi va xarakter xususiyatini aks ettirishda muhim vosita sifatida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Bu xususiyatlarni tarjimada inobatga olish adekvatlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.